



Harflardan soʻz hosil qilib, nuqtalar oʻrniga qoʻying va oʻqing.

“Turk” elida oʻzakdir,
“Sharq”qa guldir, bezakdir.
Dunyoda tinch bu makon,
Saxiy yurt ...

Oʻ B E Z K I N O T S



“Vatan ostonadan boshlanadi” hikmatli soʻzining mazmunini tushuntirib bering.



Ozod va obod Vatan

Shoira Ismoilova

Bekatda mahalla bolalari suhbatlashayotgan edi.
Ularning gaplari qulogʻimga chalindi.

- Vatan oʻzi nima?
- Vatan qayerdan boshlanadi?
- Vatan uyimizdan, yashayotgan mahallamizdan boshlanadi. Kengroq tushuntirib aytsam, barcha mahallalar, qishloqlar, tumanlar, shaharlar va viloyatlar qoʻshilib, ona Oʻzbekistonni tashkil etadi.
- Juda toʻgʻri. Demak, Vatan mahalladan, uyimizdan boshlanarkan. Biz oʻzimiz yashab turgan

joyimizni qancha sevsak, Vatanimizni shuncha sevgan bo'lamiz.

– Biz uyimizni, ko'chamizni ozoda tutishimiz kerak ekan. Eshigi oldiga bir tup gul ko'chati ekib ko'kartirmagan bola Vatanimizni gul-u gulzorga aylantirishga hissa qo'shdim, deyishiga haqqi bormi?

– Yo'q, albatta. Vatanimiz keng va bepoyon. U qudratli va ko'rkam. Uning osmono'par yuksak tog'larini ko'rganda, ko'nglimiz tog'day o'sadi. Jannatmakon bog'larida yurganda, ko'nglimiz bog'day yashnaydi.

– Shu buyuk va muqaddas Vatan bizniki, barchamizniki! Uni ko'z qorachig'imizdek asrash vazifamizdir.

Olamda yagona, mustaqil, ozod va obod Vatanimiz kamol topaversin!




1. O'qigan matningiz qaysi diyor haqida?
2. Ozod va obod deganda nimani tushunasiz?
3. Vatan qayerdan boshlanadi?
4. Nima uchun Vatanni ko'z qorachig'imizdek asrashimiz kerak?
5. "Olamda yagona, mustaqil, ozod va obod Vatanimiz kamol topaversin!" gapining mazmunini tushuntiring.



**obod – gullab-yashnagan
osmono'par – juda baland**



Quyidagi doiralarga qanday soʻzlar yozilishi kerak deb oʻylaysiz?



Hikoyani rollarga boʻlib oʻqing.

1. Quyidagi soʻzdagi harflar ishtirokida yangi soʻzlar hosil qiling.

Oʻ

Z

B

E

K

I

S

T

O

N

2. Fikrni davom ettiring.

“Men bugun darsda ... bilib oldim”.



Hikoyani oʻqing. Ona vatanimiz haqida qoʻshimcha maʼlumotlar toʻplab, hikoya qilib bering.